



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKIOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilhomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDA KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	



MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH

Xusanov Chari Kadirovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turizm kafedrasini mudiri i.f.n., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalarda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish jarayonida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining o'рни va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat-xususiy sherikchilik qo'llanilishi orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish, tarixiy ob'ektlarni qayta tiklash, turistik xizmatlar sifatini oshirish hamda mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar, institutsional to'siqlar hamda DXShning turizm sohasidagi barqaror rivojlanishga ta'siri ilmiy asosda baholanadi. Olingan natijalar hududiy turizm siyosatini takomillashtirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va turizm industriyasida samarali hamkorlik modelini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchilik, tarixiy-madaniy turizm, barqaror rivojlanish, investitsiya hamkorligi, turizm siyosati, madaniy merosni saqlash.

Abstract. This study examines the role and effectiveness of public-private partnership mechanisms in the development of historical and cultural tourism in the regions. The research highlights how public-private partnership implementation contributes to infrastructure modernization, restoration of historical sites, improvement of tourism service quality, and stimulation of local economic activity. In addition, the study evaluates the existing challenges, institutional barriers, and the impact of public-private partnership on the sustainable development of the tourism sector. The findings provide practical implications for improving regional tourism policy, enhancing investment attractiveness, and establishing an efficient cooperation model within the tourism industry.

Key words: Public-private partnership, historical and cultural tourism, sustainable development, investment cooperation, tourism policy, cultural heritage preservation.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и эффективность механизмов государственно-частного партнерства в развитии историко-культурного туризма в регионах. В исследовании раскрываются возможности применения государственно-частного партнерства для модернизации инфраструктуры, реставрации исторических объектов, повышения качества туристических услуг и активизации местной экономической деятельности. Кроме того, оцениваются существующие проблемы, институциональные барьеры и влияние государственно-частного партнерства на устойчивое развитие туристической отрасли. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования региональной туристической политики, повышения инвестиционной привлекательности и формирования эффективной модели сотрудничества в сфере туризма.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, историко-культурный туризм, устойчивое развитие, инвестиционное сотрудничество, туристическая политика, сохранение культурного наследия.

KIRISH

Mintaqalarda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sish, madaniy merosni asrash va mahalliy hamjamiyatlar farovonligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turizmning ushbu yo'nalishi nafaqat hududning madaniy identitetini targ'ib qiladi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsiya oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi. Biroq tarixiy ob'ektlarni saqlash, restavratsiya qilish va ulardan samarali foydalanish ko'p hollarda katta hajmdagi moliyaviy resurslar hamda aniq boshqaruv mexanizmlarini talab etadi.



Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari turli maqsadlarga ega manfaatdor tomonlarni birlashtiradi va mavjud ko'nikmalar, resurslar hamda bozor samaradorligidan kompleks foydalanish imkonini yaratadi. Bu yondashuv turizmni boshqarish sifatini oshirish, mintaqaning jozibadorligini kuchaytirish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda raqobatbardosh turizm bozorini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois DXSh turizm sohasida barqaror va samarali boshqaruv tizimini yaratishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va sport sohalarda davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son Farmoni hamda "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-son Qarorida mazkur sohada davlat boshqaruvini isloh qilish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Qarorlar doirasida Turizm va madaniy meros vazirligining maqomi, asosiy funksiyalari, markaziy apparat va hududiy bo'linmalarining vazifalari, ularning huquqlari hamda javobgarliklari aniq belgilandi. Shuningdek, vazirlik huzuridagi budjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyati, mablag'larni shakllantirish manbalari, ularni boshqarish tartibi va maqsadli foydalanish mexanizmlari belgilab qo'yildi.

O'zbekiston hududida turistik (mehmonxona) yig'imni undirish tartibi ham tasdiqlanib, unda yig'im miqdorining tabaqalashtirilgan stavkalari, to'lovchilar toifasi va yig'implarni shakllantirish mexanizmlari belgilandi. Bu esa turizm infratuzilmasini moliyalashtirishni barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda DXSh mexanizmlaridan foydalanish turizm sanoatida innovatsion boshqaruv yondashuvi sifatida keng ommalashmoqda. DXSh modeli davlat sektorining strategik boshqaruv tajribasi bilan xususiy sektorning moliyaviy, tashkiliy va texnologik salohiyatini uyg'unlashtirish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy meros obyektlarini qayta tiklash, ularda zamonaviy turistik xizmatlar yaratish va ularni iqtisodiy jihatdan barqaror boshqarish jarayonida ushbu mexanizm samarali vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga, mintaqalarda DXShni amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator muammolar – institutsional to'siqlar, normativ-huquqiy cheklovlar, investitsion xavflar va boshqaruvdagi nomutanosibliklar – uchrab turadi. Bu esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklikni yanada takomillashtirish, boshqaruv tizimini qayta ko'rib chiqish va amalga oshirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolada nazariy-uslubiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek turizm, madaniy meros va davlat-xususiy sheriklikka oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, aholining turmush sifati va darajasi, turizmni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari nazariy manba sifatida foydalanildi.

Davlat idoralari va xususiy biznes o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish, turizm iqtisodiyoti, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi institutsional muammolar H. K. Yung, Malakhova, T. N., Kolotyryn, K. P. va Yakunin, V. A kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida keng yoritilgan [1, 2]. Turizm boshqaruvi va DXSh mexanizmlarining rivojlanishi bo'yicha Druker J., Stanworth C. va Miraftab F. kabi mutaxassislarining ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega [3, 4].

MDH mamlakatlari olimlari – Aleksandrova I., Gubernatorov A., va boshqalar – turizm sanoatida davlat-xususiy sheriklikdan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganganlar [5]. Shuningdek, Bondarenko M. S., va Jiapeng, Y. kabi tadqiqotchilar DXShning turli sohalaridagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilganlar [6].

Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zbek olimlaridan N. Yusupov va DXShni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda uslubiy masalalarini tadqiq etgan [7]. Jumaniyozov tomonidan DXSh mexanizmlaridan uy-joy qurilishi sohasida, ayniqsa korporativ boshqaruvni takomillashtirishda foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan [8].

Turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini shakllantirish, ushbu mexanizmning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish bo'yicha O'zbekiston tadqiqotchilari – Turayev, Z. N., Eshmuratov X. E. – tomonidan hududlarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, samaradorlikni oshirish va turizm infratuzilmasini takomillashtirishda DXSh mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha sezilarli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi hamda xalqaro tajribada turizm sohasini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining ahamiyati va samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida turizm tizimida davlat va biznes subyektlari o'rtasida shakllanadigan hamkorlik modellari hamda ularning rivojlanishiga xizmat qiluvchi mexanizmlar tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti esa turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va transport-logistika tizimini takomillashtirish jarayonida DXSh mexanizmlarining ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning bosh maqsadi turizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning amaliy natijalarini baholash, mavjud tizimdagi muammolarni aniqlash hamda ushbu yo'nalishni yanada takomillashtirishga doir amaliy takliflar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, O'zbekistonda turizm sohasi va davlat-xususiy sheriklik tizimining hozirgi holatini o'rganish, Saudiya Arabistoni, Turkiya va boshqa ilg'or davlatlar tajribasini tahlil qilish, infratuzilma va turistik xizmatlar sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, shuningdek, samarali DXSh modelining konseptual asoslarini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimiz davomida tahlillar shuni ko'rsatdiki, davlat-xususiy sheriklik doirasida davlat xususiy sektorni ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishga jalb qiladi. Bunda xususiy sektor davlat tomonidan belgilangan standartlar va parametrlar asosida obyektlarni qurish, moliyalashtirish va boshqarish majburiyatini oladi. Shu bilan birga, xususiy sektor erishilgan natijalarga bog'liq holda davlatdan to'lovlarni oladi. Davlat va xususiy sheriklik mexanizmi davlat va mahalliy hukumatlarga xususiy sektorning boshqaruv ko'nikmalari va tajribasidan foydalanib, loyihalarni moliyalashtirishdagi cheklovlarni yengish, ba'zi risklarni xususiy sektor bilan bo'lishish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish hamda davlat infratuzilmasini boshqarish samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy tuzilmalar, shu jumladan turli shakl va faoliyat sohaslaridagi tashkilotlar, shuningdek, turizm sohasida innovatsion tashabbuslarni amalga oshirishga intilayotgan subyektlar o'rtasida manfaatlar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmlaridan biridir.

Davlat-va xususiy sheriklik loyihalarida davlat mulkchilikning qonuniyligini, soliq va boshqa imtiyozlar, kafolatlar, shuningdek ma'lum miqdorda moliyaviy resurslar olish imkoniyatini ta'minlaydi. Davlat yetakchi subyekt va asosiy tartibga soluvchi sifatida zarurat tug'ilganda ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat sohaslarini qayta taqsimlash huquqiga ega va bu ko'p hollarda nafaqat ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashga, ijtimoiy-iqtisodiy iqlimni yaxshilashga, balki sarmoyani ham oshirishga, mamlakat reytingi va hamkor loyihalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Bugungi kunda iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasidagi davlat va xususiy sherikchilikning asosiy shakllari mavjud (1-rasmga qarang).



1-rasm: Davlat hamda xususiy sherikchilikning asosiy shakllari

Shartnomada ko'rsatilmagan, ammo natijadan manfaatdor bo'lgan uchinchi ishtirokchi aholi yoki jamiyatdir, shuning uchun ham davlat hamda xususiy sherikchilikning ba'zan davlat-davlat sherikligi atamasi bilan almashtiriladi. Binobarin, DXSh tashkilotchilarining asosiy vazifasi milliy strategik manfaatlarini hisobga olgan holda jamiyat, davlat va xususiy biznes manfaatlarini mutanosibligini ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiyotlari rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmning rivojlanishi ko'plab omillar ta'sirida shakllangan, ular orasida agentliklar va davlat sektorlari davlat-xususiy sheriklik hukumatni birlashtirgani uchun muhim rol o'ynaydi. Agentliklar va davlat sektorlari butun turizm qiymat zanjiri vakillari bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqaro miqyosda ko'maklashish maqsadlari orqali turizmni raqobatbardoshlikni yuzaga keltirishga harakat qiladi. Davlat-xususiy sherikligi har xil turdagi manfaatdor tomonlarni jalb qiladi, rasmiy yoki norasmiy ixtiyoriy hamkorlikdagi maqsadlar, ko'nikmalar va resurslar mintaqaviy yo'nalishning jozibadorligi va unumdorligini oshirish uchun hukumat, bozor samaradorligi va turizmni umumiy boshqarish uchun xizmat qiladi.

Xitoy turizmida davlat-xususiy sheriklik faoliyati butun davlat-xususiy sheriklik sanoatining o'sishi bilan birga keladi. Moliya vazirligining "Milliy davlat-xususiy sheriklik integratsiyalashgan axborot platformasi loyihasi kutubxonasi", Hukumat va ijtimoiy kapital hamkorlik markazi veb-sayti shular jumlasidandir. Davlat-xususiy sherikligining turizm sohasidagi loyihalar soni 720 taga yetdi, bu kutubxonaning umumiy davlat-xususiy



sherklikdagi ulushi 6,1 %ni tashkil etdi. Moliya instituti dotsenti va Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining dotsenti Vey Syaning fikriga ko'ra, davlat-xususiy sherklik sarmoyasi turizmga qaratilgan. Orollar, ekoturizm, o'rmon bog'lari, qadimiy shaharlar, suv-botqoq bog'lari va sanoat parklari kabi obyektlarda turizmga davlat-xususiy sherklik harakatlari ijtimoiy kapital uchun jozibador hisoblanadi. 2015-yildan buyon bir qator sayyohlik shaharlari tashkil etilgan. Mahalliy hukumat va ijtimoiy kapital sanoati ishtiyoq va umidlarga to'la turizm sanoatiga davlat-xususiy sherklik orqali kirish uchun harakatlar qilgan. Dunyoda etnik-madaniy turizmni kompleks rivojlantirish bo'yicha davlat-xususiy sherklik loyihasi ishlab chiqilgan, 18,5 milliard yuan miqdoridagi investitsiya kvotasi bilan Xunan provinsiyasida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Bundan tashqari, Ichki Mo'g'ulistonning Chifeng shahrida 9 ta qurilish davlat-xususiy sherklik asosida amalga oshirilgan. Jami sarmoya 5 milliard yuanni tashkil etgan.

Biroq Pekindagi davlat-xususiy sherklik loyihalari soni unchalik ko'p emas. Muhim ta'minot islohoti mazmuni sifatida davlat-xususiy sherklik rejimi Pekin hokimiyati tomonidan yuqori baholangan. Pekin davlat-xususiy sherklik rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega:

Davlat-xususiy sherklik loyihalari soni unchalik ko'p emas, lekin investitsiyalar eng yuqori o'rinda turadi. Davlat-xususiy sherklik loyihalari sonini hisobga olsak, Pekinda 55 ta tasdiqlangan davlat-xususiy sherklik loyihasi mavjud. Butun mamlakat bo'ylab 9285 ta davlat-xususiy sherklik loyihalari orasida 0,6 %dan kamrog'ini tashkil etadi. Raqam unchalik katta emas, Xitoyning 332 shahrida 41-o'rinni egallagan, lekin investitsiya summasidan jami sarmoya 190,593 milliard yuanni tashkil etadi, bu umumiy hajmning 1,80 %ni tashkil etadi va 4-o'rinni egallaydi. Pekinning davlat-xususiy sherklik loyihalarida loyiha soni ko'p bo'lmasa-da, loyiha investitsiyalari nisbatan katta va umumiy ko'lami sezilarli.

Bir nechta sanoat tarmoqlarida jamlangan va shahar qurilishi loyihalari nisbatan yuqori nisbatda.

Pekindagi barcha davlat-xususiy sherklik loyihalari orasida faqat 2 tasi to'g'ridan-to'g'ri madaniy-turistik ahamiyatga ega. Har ikkala loyiha ham qishloqda.

1-jadval. Pekindagi madaniy turizmga oid davlat-xususiy sherklik loyihalari¹

Nomi	Mintaqa	Kapital miqdori	Tafsilotlar
Miaofeng Chuangyi madaniy turizm xizmati obyektlar qurilishi loyihasi	Mentougou tuman (qishloq)	25,83 million RMB	Pekin Wanhua Chuanggu turizm va dam olish maqsadida hamkorlik. Rejalashtirilgan jami yer maydoni 0,36 gektar, rejalashtirilgan umumiy qurilish maydoni 1005 kvadrat metr. Asosiy tarkib: qabul qilish xizmatlari, madaniy va dam olish tajribasi, madaniy turizm va boshqalar.
Shensi bog'i qurilishi loyihasi	Mentougou tuman (qishloq)	80 million RMB	Gudao Lanting madaniyati va san'ati qishloq korxonalari hamkorlik loyihasi. Rejalashtirilgan jami yer maydoni 0,83 gektar. Asosiy qurilish tarkibi: madaniy ko'rgazma maydoni, san'at galereyasi va qo'llab-quvvatlovchi obyektlar.

Pekinda madaniy turizm bo'yicha davlat-xususiy sherklik loyihalarida duch kelgan qiyinchiliklar sababi, madaniy turizm davlat-xususiy sherklik loyihalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin — uzluksiz ishlash va barqaror qaytish talab etiladi. Bu hukumat va ijtimoiy kapital uchun zarur loyihalarni juda ehtiyotkorlik bilan tanlashni taqozo etadi. Davlat-xususiy sherklik faoliyati davlat va xususiy sektor uchun birgalikda ijara modelidir. Hukumat uchun u yakuniy maqsad bo'lsa-da, ma'lum bir ijtimoiy manfaatga ega bo'lishi uchun loyihaga muhtoj bo'ladi, xususiy sektorning asosiy maqsadi esa foyda olishdir. Bu oddiygina ijtimoiy farovonlik tabiatini ta'minlaydigan loyiha yoki butunlay tijoratlashtirilgan bo'lsa, davlat-xususiy sherkligi uchun mos emas. Ommaviy xarakterga ega bo'lgan loyihalarga va tijorat faoliyatiga qodir bo'lganligini aniqlash uchun birinchi shart — hukumat va kompaniyaning hamkorlik loyihalari muammosiz davom etishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, madaniy turizmga davlat-xususiy sherklik uzoq muddatli operatsiyalarni talab qiladi. Umumiy davlat-xususiy sherklik bilan solishtirganda, hukumat ko'proq operatsion va hamkorlik qilishga qodir xususiy sheriklarni tanlashi kerak bo'ladi. Shu bilan birga, madaniy turizmga davlat-xususiy sherklik loyihasida ekspertlar va konsalting agentliklaridan to'liq foydalanish, turizm o'rtasidagi sinergiyadan foydalanish zarur. Soha mutaxassisarlari, moliyaviy ekspertlar, yuridik ekspertlar va professional konsalting agentliklari loyihaning maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy kapitalning operatsion imkoniyatlarini baholash uchun to'liq jalb qilinishi kerak.

Mintaqalarda tarixiy va madaniy turizmni rivojlantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladigan ko'p qirrali tizim bo'lib, unda davlat hamda xususiy sektorning o'zaro manfaatli hamkorligi barqaror rivojlanishning

¹ Xitoy Xalq Respublikasi Moliya vazirligi, Milliy PPP integratsiyalashgan axborot platformasi loyihasi kutubxonasi 6-mavsum choraklik hisoboti



muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sherikchilik modeli nafaqat turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, balki tarixiy meros obyektlarini qayta tiklash, ulardan samarali foydalanish, yangi turistik mahsulotlar yaratish hamda mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishda ham asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Davlat-xususiy sherikchilik tizimini turizmga tatbiq etish orqali mintaqalarda mavjud tarixiy yodgorliklar, arxeologik obidalar, madaniy markazlar, zamonaviy muzeylar va milliy hunarmandchilik obyektlarini iqtisodiy aylanishga kiritish jarayoni tezlashadi. Bu, bir tomondan, obyektlarning saqlanishi, restavratsiyasi va tarixiy qiyofasini tiklashni moliyaviy qo'llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan, turizm xizmatlarining sifatini yaxshilash, xizmat turlarini ko'paytirish, madaniy-ma'rifiy faoliyatni jonlantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan manbalar shuni tasdiqlaydiki, davlat tomonidan yaratilgan qulay huquqiy muhit, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar va maqsadli dasturlar xususiy kapitalning turizm sektoriga kirib kelishiga katta turtki beradi. Xususiy sektor esa o'z navbatida boshqaruvning innovatsion yondashuvlari, zamonaviy investitsion mexanizmlar, marketing strategiyalari va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tarixiy va madaniy turizmning jozibadorligini kuchaytiradi. Ayniqsa, raqamlashtirilgan muzeylar, virtual gid xizmatlari, tarixiy obyektlar uchun audio-vizual kontentlar yaratish xususiy sektorning faol ishtirokida samarali amalga oshayotgan yo'nalishlardan biridir.

Xalqaro tajribalar ham davlat-xususiy sherikchilik modeli asosida shakllangan turizm klasterlari, tematik parklar, restavratsiya qilingan tarixiy majmualar hamda madaniy tadbirlar industriyasining yuqori iqtisodiy natija berishini ko'rsatadi. Ushbu tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali mintaqalarda yangi turizm yo'nalishlarini shakllantirish, mahalliy aholining bandligini oshirish, hududlar brendini yaratish, ichki va tashqi turistlar oqimini ko'paytirish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sherikchilik tizimidan foydalanish mintaqalarda tarixiy va madaniy turizmni har tomonlama rivojlantirishning eng samarali, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan maqbul yo'nalishlaridan biridir. Bu tizim asosida turizm infratuzilmasining kengayishi, investitsion muhitning yaxshilanishi, tarixiy meros obyektlarining muhofazasi, turizm mahsulotlari diversifikatsiyasi va mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish kabi ko'plab ijobiy natijalarga erishish mumkin. Kelgusida turizm siyosatini davlat-xususiy sherikchilik tamoyillari asosida yanada takomillashtirish, xususiy investorlar uchun qo'shimcha rag'batlar yaratish, raqamli turizm xizmatlarini rivojlantirish va madaniy meros asosida innovatsion turizm mahsulotlari yaratish mamlakat turizm sanoatini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib qoladi.

Tahlillar asosida mintaqalarda tarixiy va madaniy turizmni rivojlantirish uchun davlat-xususiy sherikchilikni kengaytirish, xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kuchaytirish, raqamli turizm xizmatlarini joriy etish hamda tarixiy meros obyektlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish tavsiya etiladi. Xalqaro tajriba asosida turizm klasterlari va tematik parklarni yaratish, restavratsiya loyihalarini xususiy sektor ishtirokida amalga oshirish va hududlar turizm brendini shakllantirish orqali ichki va tashqi turistlar oqimini sezilarli oshirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yong, H. K. (Ed.). (2010). Public-private partnerships policy and practice: a reference guide. Commonwealth Secretariat.
2. Malakhova, T. N., Kolotyryn, K. P., & Yakunin, V. A. (2015). Improving the assessment of the environmental indicators of investment projects based on the public-private partnership. *Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management*, 3(1), 81-90.
3. Druker, J., & Stanworth, C. (2001). Partnerships and the private recruitment industry. *Human Resource Management Journal*, 11(2), 73-89.
4. Miraftab, F. (2004). Public-private partnerships: The Trojan horse of neoliberal development?. *Journal of planning education and research*, 24(1), 89-101.
5. Aleksandrova, I., & Gubernatorov, A. (2024, September). Algorithm for Selection of a Public-Private Partnership Model in Investment Activity Based on Multifactor Optimization. In *2024 17th International Conference on Management of Large-Scale System Development (MLSD)* (pp. 1-4). IEEE.
6. Bondarenko, M. S., & Jiapeng, Y. (2024). Public-private partnership: concept, essence, significance.
7. Yusupov, N. (2020). Measuring the impact of road infrastructure on household well-being: Evidence from Azerbaijan (No. 1205). ADBI Working Paper Series.
8. Jumaniyozov, F., & Xudarganov, T. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINING INNOVATSION RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI. *Молодые ученые*, 3(18), 25-30.
9. Turayev, Z. N., & Eshmuratov, X. E. (2024). TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMIDAN FOYDALANISHDAGI YO'NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(6), 106-115.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
